

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

QO‘LDOSHEV ILYOS SHUXRATOVICH

**O‘ZBEKISTONDA AGROSUG‘URTALASH AMALIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 - “Moliya, pul muomalasi va kredit” hamda
08.00.04 – “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”**

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Qo‘ldoshev Ilyos Shuxratovich

О‘zbekistonda agrosug‘urtalash amaliyotini tokomillashtirish.....3

Кулдашева Илёса Шухратовича

Совершенствование практики агрострахования в Узбекистане.....27

Kuldoshev Ilyos Shukhratovich

Improving agricultural insurance practices in Uzbekistan51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

QO‘LDOSHEV ILYOS SHUXRATOVICH

**O‘ZBEKISTONDA AGROSUG‘URTALASH AMALIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 - “Moliya, pul muomalasi va kredit” hamda
08.00.04 – “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”**

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.2.PhD/Iqt.2121 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kenjayev Ilhom G'iyozovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Elmirzayev Samariddin Eshquvvatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Primov Abdulla Egamkulovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «10» 12 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 60-A uy. Tel: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26, e-mail: ilmikengash@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100000, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy, Tel: (99871) 234-53-34; e-mail: kutubxona@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «16» 11 kuni tarqatildi..
(2025 yil «16» 11 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



T.Z. Teshabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

J.X. Ataniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

S.H. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshilgan ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi, jahon iqtisodiyotida raqobat ustunligi mavjud tashkilotlar sonining ko'payishi, global iqtisodiy munosabatlarda kiberxavfsizlik muammolarini hal etish va sifat indikatorlarini rivojlantirish sug'urta sohasi va sug'urta tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishda dolzarb ahamiyaga ega. «Xalqaro sug'urta nazorati assotsiatsiyasi (IAIS) 2023-yil global sug'urta bozori hisobotida (GIMAR) jahon sug'urta bozoridagi asosiy xavf va tendensiyalar, global sug'urta mukofotlarining 90 foizdan ortig'ini qamrab oluvchi 60 ga yaqin yirik xalqaro sug'urta guruhlaridan to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, iqlim o'zgarishi va kiberjinoyatchilik kabi omillar tufayli global risklarning soni ham, ularning qiymati ham ortib bormoqda, bu tendensiyalar sug'urta sohasiga ta'sir ko'rsatmoqda. 2023-yilda jahon sug'urta bozori hajmi qariyb 6 trln. AQSH dollarini tashkil etdi va 2026 yilga kelib, ushbu ko'rsatkich 8,4 trln. AQSH dollarini tashkil qilishi prognoz qilinmoqda». Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, sug'urtaning aholi farovonligini oshirishda va iqtisodiy muammolarni hal qilishda roli va ahamiyati beqiyosdir. Sug'urta tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha xalqaro amaliyotda keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Jahonda sug'urtalash amaliyotini samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Agrosug'urtalash amaliyotining iqtisodiy mohiyati va faoliyat mexanizmini tahlil qilish, mamlakatda agrosug'urtalashning institutsional muhitini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari va agrosug'urtalash amaliyotini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar natijasi agrar soxadagi tadbirkorlik sub'ektlarining himoya qilishning samarali shakli sifatida, shuningdek sug'urta kompaniyalari tomonidan milliy iqtisodiyotga investitsiya kiritish uchun mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq masalalar hanuzgacha o'zining ijobiy yechimini topmagan. Yuqoridagi holatlar agrosug'urtalash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqazo etmoqda.

O'zbekistonda agrosug'urtalash munosabatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan sifat va miqdor ko'rsatkichlarining yangi tizimini shakllantirish va joriy qilish asnosida agrosug'urta xizmatlari bozorini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, "Qishloq xo'jaligida sug'urtalanishi lozim bo'lgan tavakkalchiliklar, qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklari sug'urtasi shartnomasini tuzish va qayta sug'urta qilishni amalga oshirish, qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklari sug'urtasini amalga oshirish"¹ ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Mazkur vazifalarning bajarilishini ta'minlashda agrosug'urtalash amaliyotini zamonaviy va optimal tizimini innovatsion yondashuvlar asosida shakllantirish va agrosug'urtalash amaliyotini takomillashtirishni taqozo etadi. Bu esa mazkur dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

¹O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 4-martdagi «Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida»gi 1056-son Qonuni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 4-martdagi «Qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi 1056-sonli qonuni, 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi 60-son Farmon, Prezidentining 2019-yil 24-maydagi «Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug‘urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 4337-son Qarori, 2019-yil 2-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4412-son, 2022-yil 6-oktabrdagi «Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-387-son qarorlari, shuningdek mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Agrosug‘urtalash amaliyotini takomillashtirishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi-olimlar Ch.S. Skavtorm, R.M. Askari, R.R. Soyts, S.S. Diakon, L.A. Orlanyuk-Malitskaya, N.G. Adamchuq I.V. Orlova, I.L. Logvinova, A.A. Sigantov, K.YE. Turbina, S.A. Chudinov, G.V. Chernova, R.T.Yuldashev, P.T.Chechchinilarning ilmiy tadqiqot ishlarida tahlil qilingan.

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan: T.Malikov, O.Olimjonov, A.Jo‘rayev, H.Sobirov, X.Shennayev, M.Xodjayeva, M.Asqarova, T.Baymuratov, Q.Qo‘ldoshev, A.Nurullayev, A.Yadgarov, S.Umarov, I.Kenjayev, I.Abduraxmonov, G.Xaliqulova, N.Mavrulova, S.Sherov, G.Adilova, B.Haqberdiyev, D.Baratova, Z.Bazarov, A.Umirov, F.Xasanovlar agrosug‘urtalash amaliyotini takomillashtirishning ba’zi bir yo‘nalishlari tadqiq qilingan ².

²Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliyaviy menejment. T.: Akademiya, 1999. 254 b.; Jo‘rayev A.S. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning dolzarb muammolari: I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: DJQA, 2005. 46 b.; Sobirov H.R. Sug‘urta: 100 savol va javob.-T.: «Mehnat», 1998 -160 b, Shennayev X.M.Problemi stanovleniya straxovogo rinka v Uzbekistane: Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni k.e.n. M.: 1996. M.X.Xodjayeva, Sug‘urta faoliyati buxgalteriya hisobi va auditining hozirgi ahvoli va uni takomillashtirish yo‘llari, i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, T.: BMA-2001 130 b., M.T.Asqarova, Razvitiye sistemi straxovaniya v obespechenii ekonomicheskogo rosta v usloviyax rinochnix preobrazovaniy v Respubliki Uzbekistan, avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni k.e.n., T.:Institut ekonomiki AN RUz-2003.-132 st., T.M.Baymuratov O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatida uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.T.: Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi-2004, 125 b., Q.M.Qo‘ldoshev Sug‘urta bozorini rivojlantirish va boshqarish muammolari, i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, T.:BMA, 2009.23 b., A.S.Nurullayev O‘zbekistonda fermer va dehqon xo‘jaliklarini sug‘urtalash masalalari. i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-Toshkent, 2007.-23 b., S.X.Umarov Straxovoy rinka Uzbekistana:

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda, aynan, hududlardagi sug'urta tashkilotlari agrosug'urtalash amaliyotini takomillashtirish masalalari kompleks va tizimli o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq qilingan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarining dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining ITM-3. "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishlari bilan bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Agrosug'urtalash amaliyotini takomillashtirishga taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sug'urta xizmatlari bozorining nazariy, funksional, infratuzilmaviy tamoyillarini inobatga olib tadrijiy-tahlil nuqtai nazaridan o'rganish, tadqiqot ishi natijalari asosida "agrosug'urta" tushunchasini takomillashtirish, agrosug'urta xizmatlari bozorining amaliyotini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini yoritish;

O'zbekiston sug'urta xizmatlar bozorining faoliyat yuritishini, biznes jarayonlarini amalga oshirilishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari aniqlash;

O'zbekistonda raqamlashtirish sharoitida agrosug'urta bozori xizmatlari faoliyatini amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish va rivojlantirish yo'nalishlarini va istiqbollarini aniqlash;

xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida agrosug'urta amaliyotini tahlil qilish va rivojlangan mamlakatlar amaliyotini mamlakatda qo'llash bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqish;

osnovniye problemi i tendensii razvitiya. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni k.e.n.- M.:2013.26 str., I.G'.Kenjayev Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. T.: TMI, 2019. 26 b., I.X.Abduraxmonov O'zbekiston Respublikasida javobgarlikni sug'urtalashning amaliyotini takomillashtirish, i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, T.: BMA-2010 20 b., G.T.Xaliqulova Sug'urta tizimi va uni amal qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. T.:TMI, 2019.28 b., N.A.Mavkulova Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning rolini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. T.: TMI, 2019. 30 b., S.R.Sherov Sug'urta instituti va uni innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. T.: TMI, 2019.26 b., G.D.Adilova Iqtisodiy globallashtirish sharoitida sug'urta xizmatlarini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.avtoreferati.T.:TMI,2020.27b., B.O'.Haqberdiyev O'zbekistonda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati.T.:TMI, 2020.32 b., D.A.Baratova O'zbekistonda jamg'arib boriladigan hayot sug'urtasini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati.T.:TMI, 2020. 30 b, Z.X.Bazarov O'zbekistonda tibbiy sug'urtalash amaliyotini takomillashtirish Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.avtoreferati.T.:TMI, 2021. 26 b, A.T.Umirov O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.avtoreferati. T.:TMI, 2021.30 b, F.R.Xasanov O'zbekistonda kiber risklarni sug'urtalash masalalari Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.avtoreferati. T.: TMI, 2022. 32 b.

xalqaro standartlari asosida agrosug'urta amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlarini taklif etish;

agrosug'urta amaliyotida innovatsion yondashuvlar asosida sug'urta mahsulotlarini takomillashtirish va faollashtirish mexanizmini taklif etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlarining agrosug'urtalash amaliyoti bilan bog'liq faoliyati belgilanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, agrosug'urtalash amaliyotini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy, tanqidiy tahlil, kuzatish, sotsiometrik (suhbat, anketa, intervyu), eksperiment, matematik statistika usullaridan foydalanildi. Nazariy bilimlarni shakllantirish uchun abstrakt-mantiqiy usulidan foydalanildi. O'zbekiston sug'urta bozori va xorijiy mamlakatlar agrosug'urta bozorini tahlil qilish uchun taqqoslash, analiz va sintez, tarixiy va mantiqiy yondashuv, grafik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

agrobiznes subyektlariga xavf intensivligining ekinlar hosildorligiga ta'sirini tavsiflovchi sug'urta mahsulotlarini joriy qilish taklif etilgan;

agrosug'urta turlari andarraytingini amalga oshirishda sug'urtalash jarayonlarida ma'lumotlarni to'plash, monitoring qilish hamda sug'urta shartnomasini nazorat qilishni raqamlashtirish taklif etilgan;

sug'urta tashkiloti bilan agrobiznes subyektlari o'rtasida tuzilayotgan shartnomalar bo'yicha o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarish nuqtai nazaridan multiriskli modelini qo'llash taklif etilgan;

agrobiznes subyektlarining to'lov qobiliyatini barqarorlashtirish va faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida sug'urta shartnomasida sug'urta mukofotlarini 50 foizini subsidiya qilish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

agrar soxada tabiiy ofatlar va falokatlardan sug'urtalashda risklarni baholash, sug'urta shartnomasini risklilik ko'rsatkichlarini aniqlash va sug'urta shartnomalarini tuzish jarayonlarini soddalashtirish taklifi amaliyotda foydalanish uchun qabul qilingan;

agrosug'urtalash amaliyotini raqamlashtirish, sifat va miqdor ko'rsatkichlarini oshirish orqali aholining ijtimoiy muhofaza qilish dastaklarini kiritish taklifi amaliyotda qo'llanilgan;

mamlakatda ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish maqsadida agrosug'urta bozoriga innovatsion sug'urta mahsuloti texnologiyalarini joriy qilish taklifi asoslangan;

sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda sug'urta zahiralarini shakllantirish maqsadida agrosug'urtalash dinamikasining o'zgarishini inobatga olgan holda sug'urta ta'riflarini hisoblash va uni optimallashtirish taklifi sug'urta kompaniyalari faoliyatida qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan usullar va yondashuvlar to'g'riligi, ma'lumotlarning ishonchliligi va rasmiy manbalardan olinganligi, masalan, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar milliy agentligi, agrosug'urtalash amaliyotida foydalinalayotgan meyoriy hujjatlar, sug'urta tashkilotlarining rasmiy saytlarida e'lon qilingan ma'lumotlari va yillik hisobotlari, ijtimoiy va internet tarmoqlarida berilgan ma'lumotlardan foydalanilganligi, mahalliy va xorijiy olimlar va mutaxassislar tomonidan berilgan tahlillar hamda xulosa va takliflarning tegishli sug'urta kompaniyalari tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida agrosug'urtalash amaliyotini takomillashtirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarning sug'urta kompaniyalari faoliyatiga tatbiq etilishi, sug'urta kompaniyalarida amalga oshirilayotgan agrosug'urtalash amaliyotini rivojlantirishga va ommalashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda agrosug'urtalash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

agrobiznes subyektlariga ma'lum bir xavf intensivligining ekinlar hosildorligiga ta'sirini tavsiflovchi sug'urta mahsulotlarini joriy qilish taklifi «O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy qilingan («O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 28-iyundagi 04-990-son ma'lumotnomasi). Natijada sug'urta tashkilotining sug'urta dasturlari doirasi kengaytirilishi natijasida sug'urta shartnomalarining soni 10-15 foizga ko'payishiga erishilgan.

agrosug'urta turlarini andarraytingini amalga oshirishda sug'urta biznesi jarayonlarini ya'ni ma'lumotlarni to'plash, monitoring qilish va agrosug'urta shartnomasini nazorat qilishni raqamlashtirish taklifi «O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy qilingan («O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 28-iyundagi 04-990-son ma'lumotnomasi). Natijada agrosug'urta shartnomalarini amalga oshiruvchi sug'urta tashkilotlarining andarrayting xarajatlari kamayib, sug'urta tashkilotining daromadi 10 foiz atrofida oshishiga erishilgan.

sug'urta tashkiloti va agrobiznes subyektlari o'rtasida tuzilayotgan shartnomalar bo'yicha o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarish nuqtai nazaridan multiriskli iqtisodiy modelini qo'llash taklifi «O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy qilingan («O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 28-iyundagi 04-990-son ma'lumotnomasi). Natijada sug'urta hodisalari ro'y berganda sug'urta qoplamasini to'lash bo'yicha olingan majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq miqdorda bajarish maqsadida parametrik xususiyatlardan kelib chiqib, Xevisayd

funksiyasini qo'llagan holda agrosug'urta bo'yicha sug'urta tashkilotining zararlilik ko'rsatkichlari 14 foizga kamayishiga erishilgan.

agrobiznes subyektlarining to'lov qobiliyatini barqarorlashtirish va faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida sug'urta shartnomasida sug'urta mukofotlarini 50 foizini subsidiya qilish taklifi «O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy qilingan («O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 28-iyundagi 04-990-son ma'lumotnomasi). Natijada agrobiznes subyektlari tomonidan to'lanadigan sug'urta mukofotlar miqdori, ya'ni sug'urta xarajatlari o'rtacha 20 foizga qishqartirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 4 xalqaro va 3 ta respublika miqiyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 123 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida agrosug'urtalash amaliyotini nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, sug'urta tizimi va ishlab chiqarish tarmoqlarini sug'urtaviy himoyalashning mazmun-mohiyati, agrosanoat majmui korxonalarida agrosug'urta faoliyatining obyektiv zaruriyati va uning ilmiy asoslari hamda agrosug'urtalash amaliyotining o'ziga xos-xususiyatlar va amalga oshirish tartibi keng tadqiq etilgan.

Sug'urta sodir bo'lgan va favqulodda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy zararlilar hamda ularning kuchini qirqishga qaratilgan amaliy tadbirlar va zarar natijasida hosil bo'lgan kamomadni o'rnini qoplash yuzasidan sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlariga aytiladi. Sug'urtaviy himoya iqtisodiyotning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo'ladigan tabiiy ofatlar, favqulotda yuzaga keladigan talofatlar va boshqa hodisalar oqibatida yetkazilgan moddiy zararlarni qoplash bilan bog'liq taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlarini o'zida

mujassamlashtiradigan ijtimoiy himoya turidir. Bu turdagi munosabatlar respublika, viloyat, shahar va tumanlar miqyosida ob'ektlarga hamda insonlar hayotiga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlardan sug'urtaviy himoyalaniish nazarda tutiladi.

Shuningdek qishloq xo'jaligi rivojiga kutilmagan tabiiy ofatlar ta'sir etishi doimo o'z isbotini topgan bo'lib, qishloq xo'jaligini sug'urtalash tadbirlarini kengaytirib borish juda muhim hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida quyidagi mol-mulk turlari turli-tuman tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalardan sug'urtalanishi mumkin:

qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi (yaylovlar hosilidan tashqari);

qishloq xo'jaligi hayvonlari, uy parrandalari, quyonlar, mo'ynali hayvonlar va asalari uyalari;

binolar, inshootlar, o'zatiq qurilmalari, kuch beradigan, ishchi va boshqa mashinalar, transport vositalari, ish qurollari, baliqchi kemalar, ov qurollari, inventar mahsulot, xomashyo-materiallar, ko'p yillik daraxtlar.

«O'zagrosug'urta» AJ tomonidan qishloq xo'jaligini sug'urtalashning majburiy va ixtiyoriy turlari amalga oshirilmoqda. Ushbu qishloq xo'jaligini sug'urtalashning majburiy va ixtiyoriy turlarini quyidan keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

1-jadval

Qishloq xo'jaligini sug'urtalash turlari³

№	I. Majburiy sug'urta turlari	foizda
1.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish bo'yicha ishlarni o'tkazish uchun avans tariqasida beriladigan va fyuchers kontraktlari bo'yicha mablag'lar qaytarilishini sug'urta qilish	1,0 %
2.	Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga Davlat ehtiylari uchun xarid qilinadigan paxta xom ashesi va g'alla etishtirishning mablag' bilan ta'minlashga beriladigan imtiyozli kreditlar qaytarilishi bo'yicha tadbirkorlik	1,25 %
3.	Qishloq joylaridagi transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	0,5-2,0 %
4.	Qishloq joylaridagi garovga qo'yilgan mol-mulkni sug'urta qilish	0,25 %
II. Ixtiyoriy sug'urta turlari		
1.	Qishloq xo'jaligi korxonalari ekinlari hosilini ixtiyoriy sug'urta qilish	2-8 %
2.	Qishloq xo'jaligi ekinlarini qayta ekish natijasida oldindan ko'zda tutilmagan xarajatlarni ixtiyoriy sug'urta qilish	8-10 %
3.	Qishloq xo'jalik hayvonlarini tabiiy ofatlar, turli kasalliklar va boshqa hodisalar natijasida nobud bo'lishidan sug'urtalash	4-8 %
4.	Bog'lar va o'zumzorlar hosilini tabiiy ofatlardan sug'urta qilish	8-12%
5.	Qishloq xo'jaligi korxonalarining tabiiy pichanzorlari, yaylovlari hosilini va tut daraxtlari barolarini sug'urtalash	2-3%
6.	Pilla hosilini sug'urta qilish	1-2%
7.	Lizingga olinaetgan texnikalarni sug'urta qilish	0,5 %
8.	Qishloq xo'jaligi korxonalarining mol-mulkini sug'urta qilish	0,5-4,0 %
9.	Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan jo'natiladigan yuklarni sug'urta qilish	0,4-4,0 %

Qishloq xo'jaligiga tegishli asosiy vositalar va aylanma fondlar uchun suv toshqini, bo'ron, to'fon, jala, do'l, o'prilish, er osti suvlarining xarakati, sel kelishi,

³ Muallif ishlanmasi

chaqmoq urishi, er qimirlashi, cho‘kish, yong‘in, halokatga uchrash natijasida halok bo‘lishi va zararlanishi; ko‘p yillik daraxtlar uchun esa, yuqoridagilardan tashqari qurg‘oqchilik sovuq urishi, o‘simlik zararkunandalari yeishi natijasida halok bo‘lishi yoki zararlanishi oqibatlari bu sug‘urta xodisalari xisoblanadi.

Qishloq xo‘jalik maxsulotlari nobud bo‘lganda yoki zarar ko‘rganda yetkazilgan zarar hajmi barcha maydondagi asosiy ekin (yoki ekinlar guruhi) bo‘yicha yo‘qotilgan hosil miqdorining qiymatiga qarab aniqlanadi. Bunda har bir gektar hisobiga so‘ngi uch yil davomida olingan o‘rtacha yillik hosildorlik bilan, sug‘urta hodisasidan keyin olingan hosildorlik o‘rtasidagi farq asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligi hayvonlari, uy parrandalari, quyonlar, mo‘ynali hayvonlar va asalari uyalari halok bo‘lganda yetkazilgan zarar uning halok bo‘lgan kunidagi balans (inventar) qiymati (ishchi hayvonlar bo‘yicha esa amortizatsiyani hisobga olgan qiymati) dan kelib chiqib aniqlanadi. Molni majburan so‘yilgan taqdirda iste‘mol qilish mumkin bo‘lgan go‘sht va teri qiymati zarar so‘mmasidan chegirib tashlanadi.

Asosiy va aylanma fondlar bo‘yicha zarar ularning balans (inventar) qiymatidan eskirish qiymatini chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi. Zarar so‘mmasiga mol-mulkni qutqarish va talofatdan keyin uni tartibga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar qo‘shiladi.

Sug‘urtalanishi mumkin bo‘lgan fuqarolarning shaxsiy mulkiga quyidagilar kiradi:

imoratlar, uy-joylar, dala uylari, bog‘-hovlilar, xo‘jalik imoratlari kiradi;
hayvonlar yirik shoxli mollar, otlar va tuyalar va boshqalar;


Qishloq xo‘jaligini doimo o‘z vaqtida sug‘urta qilib borish orqali qishloq xo‘jaligi korxonalarining barqaror ishlashiga va ularni iqtisodiy himoya qilinishiga asosiy poydevor yaratiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Agrosug‘urtalash amaliyotining hozirgi holati va uni rivojlantirishdagi asosiy muammolari”** deb nomlangan bo‘lib, unda O‘zbekistonda agrosug‘urtalash amaliyoti tahlili, agrar sohadagi xatarlarni sug‘urtalashning jahon tajribasi, qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini sug‘urtalashda risklarni boshqarish uslubiyoti tadqiq etilgan.

O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanish tendensiyasiga ega, yildan-yilga O‘zbekiston sug‘urta bozorida yangi ishtirokchilar paydo bo‘lmoqda, sug‘urta mukofotlari hajmi, sug‘urta to‘lovlari va sug‘urta shartnomalarining soni ortib bormoqda. Sug‘urta bozori rivojlanish indikatorlarining natijasi sug‘urta mukofotlarining YAIM dagi ulushi va sug‘urta mukofotlari hajmining aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi hisoblanadi.


Keltirilgan ikkita ko‘rsatkich bo‘yicha AQSH birinchilikni egallamoqda. Sug‘urtaning ahamiyati aholi jon boshiga sug‘urta mukofotining hajmi bilan belgilanadi. So‘nggi yillarda sayyoramizning har bir aholisi uchun taxminan 650-700 AQSH dollari miqdorida sug‘urta mukofoti to‘g‘ri kelmoqda.

O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatining YAIM dagi ulushi dinamikasi so‘nggi yillarda 0,32 foizdan 0,7 foizgacha tashkil etmoqda.



1-rasm. O'zbekistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofoti summasi⁴


Ushbu rasmda O'zbekistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofotlar ulushi 2015 yildan to 2022 yilgacha keltirilgan bo'lib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofotlar ulushi yillar davoida o'sgan. Bunga asosiy sabab aholiga ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlari sifati yaxshilanib, aholi daromadlarining oshishi hamda aholi o'rtasida sug'urtaga bo'lgan ishonchning ortib borayotganligidan dalolat beradi.



2-rasm. Sug'urta mukofotlari hajmi (%da)⁵

⁴Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga asoslanib, muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁵ Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga asoslanib, muallif tomonidan ishlab chiqilgan.




3-rasm. Sug'urta to'lovlari hajmi(%da)⁶

O'zbekiston sug'urta bozori mustaqillikka erishganidan buyon o'tgan qisqa vaqt ichida G'arb sug'urta bozorlarining evolyutsion rivojlanishi davomida o'nlab va hatto, yuzlab yillar davom etgan o'zining jadal rivojlanish yo'lini bosib o'tdi.

Yuqorida keltirilgan jadvalda sug'urta to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotni ko'rishimiz mumkin. Keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 2023 yil sug'urta to'lovlari hajmi 2 022 054 mln. so'mni tashkil etgan, bu esa o'tgan yilgiga nisbatan, 22,1 foizga kam. Umumiy sug'urta tarmog'ida bu ko'rsatkich ijobiy, 42,7 foizga o'sgan, ammo hayot sug'urta tarmog'ida sug'urta to'lovlari 69,7 foiz miqdorida kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

Sug'urta tashkilotlari sug'urta majburiyatlari hajmini tahlil qiladigan bo'lsak, 2023 yilda 2 341 558 450 mln. so'm miqdorida, o'tgan yilga nisbatan 11,3 foizga ko'paygan. Jadval ma'lumotlarida diqqatimizni tortadigan holat ixtiyoriy hayot sug'urtasi tarmog'i bo'yicha sug'urta majburiyatlari 1 238,5 foiz miqdorida oshgan. Sug'urta bozorida sug'urtaga yangi innovatsion sug'urta mahsulotlarini kiritish va raqamlashtirish sug'urta bozorining innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Chunki aholiga ko'rsatiladigan yangi sug'urta xizmatlari aholiga juda ko'p qulayliklarni yaratib berayapti. Bu qulayliklar aholi xarajatlarini kamaytirishga olib keladi.

⁶ Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga asoslanib, muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



4-rasm. Sug'urta majburiyatlari hajmi (%da)⁷

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini sug'urtalash qamrovi darajasi juda past bo'lib, asosan, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari tomonidan, eng avvalo, paxta va g'allaga subsidiyalangan kreditlar uchun talabgir. O'zbekiston Respublikasi 2017 yilda iqtisodiy taraqqiyotning yangi davriga qadam qo'ydi. O'sha yili hukumat tomonidan 2017–2021 yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi" milliy dasturi qabul qilingan bo'lib, undan so'ng 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi va yaqinda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi e'lon qilindi. Ushbu strategiyada belgilangan maqsadlardan biri qishloq xo'jaligida sug'urta tizimini isloh qilish (54-maqсад). Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jaligidagi risklarni sug'urtalash va moliyalashtirish sohasidagi ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Bugungi kunda respublikamizda agrar soha sug'urtasi rivojlanib va takomillashib bormoqda. Hozirgi kunda ushbu tarmoqda qishloq xo'jalik ekinlari hosilini sug'urtalash bo'yicha xizmatlarni taklif etuvchi "O'zagrosug'urta" aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritmoqda. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun asosida faoliyat ko'rsatuvchi ushbu kompaniya qishloq xo'jaligi sug'urtasi yo'nalishi bo'yicha 40 taga yaqin turdagi sug'urta xizmatlarini amalga oshirib kelmoqda. Ushbu kompaniya tomonidan qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha amalga oshirilgan sug'urta xizmatlari bo'yicha yig'ilgan sug'urta

⁷O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga asoslanib, muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mukofotlari, amalga oshirilgan sug'urta tavoni hamda olingan sug'urta javobgarligi va tuzilgan sug'urta shartnomalarini quyida keltirilgan (2-jadval) ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

"O'zagrosug'urta" AJ tomonidan qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha amalga oshirilgan sug'urta xizmatlari⁸

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar					
		2019	2020	2021	2022	2023	2024
Sug'urta mukofoti	ming. so'm	93809,7	55540,9	2527,3	32759285	42408034	80045
Sug'urta tavoni	ming. so'm	64644,2	44739,8	7747,9	3910703,4	1037445,9	927225,4
Sug'urta javobgarligi	ming. so'm	72456,1	61447,3	40347,2	1024565671	2008482056	4204342
Sug'urta shartnomalari	dona	51164	14030	1217	9385	7320	38

Ushbu jadvalda 2019-2024 yillarda "O'zagrosug'urta" AJ tomonidan qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha sugurta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlari amalga oshirilgan sug'urta tavoni hamda olingan sug'urta javobgarligi va tuzilgan sug'urta shartnomalari ulushi keltirilgan. 2019 yilda qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlar ulushi 93809,7 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2020 yilda 55540,9 min.so'mni tashkil etgan. Tahlil natijalaridan kelib chiqib shunday xulosaga kelish mumkinki, qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha sugurta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlari 2019 yilga nisbatan 2020 yilda 38268,8 ming.so'mga sug'urta mukofotlari kam yig'ilgan. Bunday natijani yuzaga kelishiga asosiy sabab, pandemiya sharoitida sug'urta xizmatlaridan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish imkoniyati bo'lmaganligidan dalolat beradi. Shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha sugurta bozorida tuzilgan sug'urta shartnomalari soniga ham e'tiborni qaratadigan bo'lsak 2023 yilda tuzilgan sug'urta shartnomalar soni 7320 dona bo'lib, bu ko'rsatkich 2024 yilda 38 donani tashkil etgan. Ushbu natijani yuzaga kelishiga asosiy sabab faqat chorva mollari hamda lizing sug'urtasi bo'yicha sug'urta shartnomalari tuzilgan bo'lib, paxta va g'alla ekinlari sug'urtalanmagan.

Shuningdek xalqaro amaliyotda qishloq xo'jalik xatarlarini sug'urtalashning davlat-xususiy sherikchilik (PPP – Public-Private Partnership) formatidagi samarali modellarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Sug'urtalashning an'anaviy modelida faqat ikki tomon sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi ishtirok etsa, davlat-xususiy sherikchilik modelida davlatning moliyaviy yordami bilan qishloq xo'jalik xatarlarini sug'urtalashda sug'urta munosabatlarining uch subyektlari: fermer xo'jaliklari, sug'urta kompaniyalari va davlat ishtirok etadi. Bugungi kunda xalqaro amaliyotda ushbu modelning 5 turini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: a)AQSH; b)Kanada, Isroil; v)Ispaniya, Turkiya; g)Avstriya, Shvetsariya; d)Germaniya modellaridir (3-jadval).

⁸Muallif tomonidan "O'zagrosug'urta" AJning yillik hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

**Agrar soha xatarlarini sug'urtalashda davlat-xususiy sherikchilik
(PPP - Public-Private Partnership) modellari⁹**

№	Modellarning mazmuni	Modelning afzalliklari	Modelning kamchiliklari
1	AQSH Davlat va xususiy sektor o'rtasida maksimal darajadagi samarali munosabatlarni urnatilishi	qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini sug'urtalashda davlatning faol ishtiroki; sug'urta mukofotini to'lash uchun davlat tomonidan subsidiyalar berish orqali sug'urta qiymatini pasaytirish; xususiy sug'urta kompaniyalarini agrar sohaga sug'urta xizmatlarini taklif etishdagi faol ishtiroki; qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining turli xatarlardan yuqori darajada himoyalaniishi; qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va sug'urta kompaniyalari o'rtasida shaffof munosabatlarni o'rnatilishi; sug'urta maxsulotlarini takomillashtirish orqali agrosug'urtaning o'zluksiz rivojlanishi.	davlat boshqaruv xarajatlarining yuqoriligi; sug'urta kompaniyalari daromadlarining cheklanganligi
2	Kanada, Isroil Davlatning yuqori darajadagi aralashuvi	sug'urta mukofotini to'lash uchun davlat tomonidan subsidiyalar berish orqali sug'urta qiymatini pasaytirish, mamlakatda sug'urtaning ko'lamini oshirish; qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini xatarlardan himoyalanganligi; mamlakatda agrosug'urta tizimini o'zluksiz va rejali rivojlanishi.	davlat boshqaruv xarajatlarining yuqoriligi; sug'urta kompaniyalari daromadlarini cheklanganligi.
3	Ispaniya, Turkiya Sug'urta birlashmalari orqali agrosufurlashni amalga oshirish	sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi davlat o'rtasidagi o'zaro samarali munosabatlarni o'rnatilishi; qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini xatarlardan himoyalanganligi; qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining birlashmalarga qo'shilishi orqali qishloq xo'jalik xatarlarini sug'urtalash bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda faol ishtiroki.	davlat boshqaruv xarajatlarining yuqoriligi; birlashmalar tomonidan agrosug'urta jarayonlarini boshqarilishi va amalga oshirilishi sababli xususiy sektor rolining pasayishi.
4	Avstriya, Shveytariya Mamlakatda yagona sug'urta kompaniyasini faoliyat yuritishi	mamlakatda yagona ixtisoslashgan sug'urta kompaniyasini tashkil etish orqali sifatli agrosug'urtani joriy etish, agrosug'urta bozorining markazlashuvi; sug'urta mukofotini to'lash uchun davlat (mahalliy hokimiyat) tomonidan subsidiyalar berish orqali sug'urta qiymatini pasaytirish; hosildorlik bo'yicha statistik ma'lumotlarni taqdim etilganda fermerlarga sug'urta polislarini olishdagi chegirmalar (Avstriya).	qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini tabiiy ofatlardan yuqori darajada himoyalanganligi; qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini sug'urtalashda qat'iy qoidalarni amal qilishi ;qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini sug'urtalash bozorida raqobatning mavjud emasligi.
5	Germaniya Sug'urtalashda davlatning minimal ishtiroki	davlat boshqaruv xarajatlarining pastligi; xususiy sug'urtalashning rivojlanishi	qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini tabiiy ofatlardan himoyalanganligi; hosilni yo'qotish bilan bog'liq zararlar uchun davlat yordamining yo'qligi; qishloq xo'jaligi xatarlarini sug'urtalashni subsidiyalashtirish dasturining yuqligi sababli agrosug'urta xizmatlari narxining yuqoriligi.

Ayrim davlatlarda (Qozog'iston, Ukraina) qishloq xo'jalik maxsulotlari ishlab chiqaruvchilarga nisbatan majburiy sug'urta tizimini joriy etishdagi sa'y harakatlar o'z samarasini bermagan. Sug'urta ixtiyoriy bo'lishi lozim. Endilikda ko'plab davlatlarda qishloq xo'jaligidagi xatarlardan sug'urtalanish ixtiyoriy tarzda amalga oshirilmoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari

⁹Risk management agency (ed.) Multiple Peril Crop Insurance, U.S. Department of Agriculture, Risk Management Agency, Washington D. C. Online Paper, Электронный ресурс. Режим доступа: <http://www.rma.usda.gov/pubs/rme/fsh6.html>.

xatarlarni boshqarish bilan bog'liq muammolarni hal etishda qay bir usul eng yaxshi samara bersa, shuni tanlashlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizda agrar soha sug'urtasi rivojlanib va takomillashib bormoqda. Hozirgi kunda ushbu tarmoqda qishloq xo'jalik ekinlari hosilini sug'urtalash bo'yicha xizmatlarni taklif etuvchi "O'zagrosug'urta" davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritmoqda. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonun asosida faoliyat ko'rsatuvchi ushbu kompaniya qishloq xo'jaligi sug'urtasi yo'nalish bo'yicha 40 taga yaqin turdagi sug'urta xizmatlarini amalga oshirib kelmoqda.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida agrosug'urtalash amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlari”** nomli uchinchi bobida agrosug'urtalash xizmatlarini takomillashtirish hamda agrar sohada indeksli va turli risklarga ega sug'urta maxsulotlari taraqqiyot istiqbollar hamda parametrik sug'urtalash sxemalarini agrar sohasida qo'llash innovatsion sug'urta himoyasi sifatida tadqiq etilgan.

Qishloq xo'jaligi ekinlarni sug'urtalash bir qator sabablarga ko'ra qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan eng ko'p talab qilinadi. Birinchidan, tabiiy ofatlardan yetkazilgan zarar miqdori sezilarli bo'lishi mumkin va ayrim hollarda ishlab chiqaruvchining mulkning to'liq kapital qiymatiga yetishi mumkin. Bu o'z navbatida, qishloq xo'jaligi subyektlar faoliyatini qisman yoki to'liq to'xtatishga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, sug'urtaning bu turi o'zining qimmatligi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun mutlaq zaruriyati tufayli davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Shuning uchun ekinlarni sug'urta qilishning asosiy shartlari davlat tomonidan belgilanadi va tartibga solinadi.

Shuningdek 2021-yil 1-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Dehqon xo'jaligi to'g'risida”gi O'RQ-680-sonli qonuni va 2019-yil 23-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-5853-sonli farmoni “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” amalga oshirilishi, qishloq xo'jaligini sug'urtalashning tomoyillari yangi tizimini barpo etish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari og'irini oson qilish imkonini beradi, ular yangi sxema bo'yicha amalda jami sug'urtaning atigi 50 foizini to'laydilar. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sifatida sug'urtaning qolgan 50 foizini qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisining arizasiga ko'ra sug'urtalovchining manziliga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining prognozlariga ko'ra, ushbu qonunning qabul qilinishi sug'urtalangan ekin maydonlarining ulushini yanada 80 foizga oshiradi, bankrotlik holatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga sug'urta tovonini to'lamaslik xavfini kamaytiradi, shuningdek alohida sug'urta kompaniyalari va favqulodda vaziyatlarda davlat budjet mablag'larini tejashga yordamlashadi.

Yangi qonunga ko'ra, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisi xisoblangan sug'urta mukofotining atigi 50 foizini to'laydi. Qolgan 50% sug'urta tashkilotining xisob raqamiga O'zbekiston Respublikasining ta'sis subyektining agrosanoat kompleksining boshqaruv organi tomonidan o'tkaziladi.

Qishloq xo'jaligini sug'urtalash rejasi har yili O'zbekiston Respublikasining ta'sis subyektlari va sug'urtalovchilar assotsiatsiyasining takliflari asosida ishlab chiqiladi. Ushbu reja mas'ul davlat vazirliklar va idoralar bilan majburiy muvofiqlashtirilishi kerak va sug'urta obyektlari ro'yxatini va subsidiyalar miqdorini xisoblash uchun marjinal stavkalarni o'z ichiga oladi.

Agrosug'urtaning mahalliy amaliyotida qo'llaniluvchi sug'urta turlarining tarixiy jihatini hisobga olgan holda, ko'p riskli sug'urtaga yetakchi o'rin berilishi kerak. "Ko'p riskli sug'urta" atamasi Shimoliy Amerika sug'urta amaliyotida yuzaga kelgan. Yevropa amaliyotida bunday sug'urta turi birlashgan sug'urta deb ataladi. Ba'zi mamlakatlarda ko'p riskli sug'urta noto'g'ri ravishda kompleks sug'urta deb ataladi, bu metodologiya nuqtai nazaridan to'g'ri emas, chunki kompleks sug'urta bir shartnoma yoki sug'urta polisi bo'yicha turli obektlarni sug'urta qilishdir, masalan: mashinalar, binolar, hayvonlar va ekinlar. Ko'p riskli sug'urta arzon emas, shuning uchun, qoida tariqasida, u davlat subsidiyalari sharti bilan rivojlanadi.

Ko'p riskli sug'urta bo'yicha zarar ko'rsatkichi qishloq xo'jaligi sug'urtasining boshqa turlariga nisbatan yuqori maxsulotlar. So'nggi yillarda, xorijda, obektdan nisbatan mustaqil bo'lgan biror-bir narsaning holatini kuzatish asosida parametrik sug'urta yoki indeksli sug'urta ko'proq tan olinadi, uning qiymati sug'urta hodisasi sodir bo'lganligining ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi. Masalan, bunday parametrlar o'rtacha zona hosildorlik bo'lishi mumkin (xo'jalik hududi joylashgan zonaga ko'ra) va alohida yillardagi ob-havo sharoitlarini aks ettiruvchi ob-havo ko'rsatkichlarining sezilarli darajada ma'lum bir to'plami (parametrlari).

Tadqiqotning maqsadi ko'p riskli sug'urta dasturlarini indeksli sug'urta maxsulotlari bilan taqqoslash, ikkinchisini mahalliy amaliyotda loyihalashda afzalliklarni va mumkin bo'lgan to'xtash omillarini aniqlashdan iborat.

Indeksiga asoslangan sug'urta maxsulotlarining asosiy maqsadi ma'muriy xarajatlarni kamaytirish va tanlovga qarshi (imkoniyatdan ko'ra ko'proq foyda keltirmaydigan obektlar sug'urta uchun qabul qilinganda) va axborot assimetriyasi riskini kamaytirishdir. Indeksli sug'urta ma'lum bir fermer xo'jaligiga yetkazilgan zararni baholashdan bosh tortishga asoslanadi.

Indeksli sug'urtada ma'lum bir fermer xo'jaligining haqiqiy yo'qotilishi to'g'ridan-to'g'ri baholanmaydi va sug'urta tovonining miqdori oldindan belgilangan model asosida belgilanadi.

Shuningdek qishloq xo'jaligi sug'urtasida qo'llaniluvchi quyidagi indeksli sug'urta turlari ma'lum: mintaqaviy hosildorlik indeksiga asoslangan sug'urta mintaqaviy daromad indeksiga asoslangan sug'urta (hosildorlik o'simlikchilik maxsulotlari narxлари bilan birgalikda); ob-havo indeksleri asosida sug'urta qilish (xususan, harorat ko'rsatkichlari, tuproqdagi namlik miqdori, yog'ingarchilik miqdori, shamol kuchi, qor qoplamining qalinligi); mintaqaviy yaylov yashil massasi indeksi (o'simliklar indeksi) asosidagi sug'urta.

Keng qo'llaniluvchi ikkita asosiy sug'urta hosildorlik indeksi sug'urtasi va ob-havo indeksi sug'urtasi. Xorijiy amaliyotdan olingan bunday sug'urta

